

**NIZOMIY NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY PEDAGOGIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

RUZMETOVA ZILOLAXON DILMURADOVNA

**TALABALARDA XORIJIY TILLARNI O‘RGANISH JARAYONIDA
NAMOYON BO‘LADIGAN EMOTSIONAL HOLATLARNING
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

**Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
психологическим наукам**

**Contentsf dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
psychological sciences**

Ruzmetova Zilolaxon Dilmuradovna

Talabalarda xorijiy tillarni o'rganish jarayonida namoyon bo'ladigan
emotsional holatlarning psixologik xususiyatlari.....3

Рузметова Зилолахон Дилмурадovна

Психологические особенности эмоциональных состояний студентов в
процессе изучения иностранных языков.....25

Ruzmetova Zilolakhon Dilmuradovna

Psychological characteristics of students' emotional states in the process of
learning foreign languages48

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works.....52

**UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/30.12.2021.P.26.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

RUZMETOVA ZILOLAXON DILMURADOVNA

**TALABALARDA XORIJIY TILLARNI O'RGANISH JARAYONIDA
NAMOYON BO'LADIGAN EMOTSIONAL HOLATLARNING
PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI**

19.00.06 – Yosh va pedagogik psixologiya. Rivojlanish psixologiyasi

**PSIXOLOGIYA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTASIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.4.PhD/P1112 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertasiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tdpu.uz) va «Ziyonet» Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan

Ilmiy rahbar:

Urazbayeva Dilbar Abdullayevna
psixologiya fanlari doktori (DSc), professor

Rasmiy opponentlar:

Kamilova Nodira Gayratovna
psixologiya fanlari doktori, professor

Salomova Guli Shodimurodovna
psixologiya fanlari doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertasiya himoyasi Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti huzuridagi _____ raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «_____» _____ kuni soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32; faks: (+99871) 276-76-51; e-mail: tdpu_kengash@edu.uz).

Dissertasiya bilan Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100185, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor ko'chasi, 27-uy. Tel.: (+99871) 276-82-32).

Dissertasiya avtoreferati 2025-yil «_____» _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil «_____» _____ dagi _____ raqamli reyestr bayonnomasi).

F.A.Akramova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy
kengash raisi, psixologiya fanlari
doktori, professor

N.B.Atabayeva

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
ilmiy kotibi, psixologiya fanlari
doktori, professor

Z.T.Nishanova

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, psixologiya fanlari
doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda so‘nggi yillarda mehnat muhojirlari soni va yo‘nalishi o‘shish tendensiyasiga ega. Xalqaro migratsiya tashkiloti statistik ma‘lumotiga ko‘ra, 2023-yilda dunyo bo‘ylab 281 million xalqaro mehnat migrantlari bo‘lgan va ular jahon ishchi kuchining 4,9 foizini, mehnatga layoqatli yoshdagi (15 yosh va undan katta) xalqaro mehnat migrantlarning taxminan 60 foizini tashkil etgan.¹ Bu borada Xalqaro mehnat migratsiyasi turli darajadagi iqtisodiy, demografik, texnologik, siyosiy hamda ekologik omillar ta‘sirida kuchayishi, oqibatda rivojlangan davlatlardagi demografik inqirozning vujudga kelishi, ishchi kuchi taqchilligi muammosi keltirib chiqishi tendentsiyasi kuzatilmoqda. Lekin aksariyat mehnat muhojirlarining turli noxush holatlarga duch kelishi - krimogen, odam savdosi va boshqa vaziyat qurboni bo‘lishi ularning ishlab turgan davlatining tilini bilmasligi sabab bo‘lmoqda. Mazkur vaziyat mehnat migratsiyasi jarayonida chet tillarini o‘rganish nafaqat individual darajadagi manfaatlarni oshirishi, balki migrantlarni qabul qiluvchi davlatning iqtisodiy, ijtimoiy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shunga ko‘ra, til o‘rganish dolzarb ahamiyatli sifatida ilmiy tadqiq etish zaruratini yuzaga keltiradi.

Jahon oliy ta‘lim muassasalari va ilmiy-amaliy markazlarida amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlar va yangi islohotlar xorijiy tillarini o‘qitishda til o‘rganish jarayonining muvaffaqiyatini ta‘minlaydigan pedagogik-psixologik omillarni tadqiq qilishga qaratilgan ilmiy va amaliy izlanishlar olib borilmoqda. Bunday omillar qatorida til o‘rganuvchilarning lingvistik qobiliyati, xorijiy tillarni o‘rganishga layoqati, moyilligi, qiziqishi, ehtiyoji va maqsadlari, kognitiv sohasining o‘ziga xosligi, asab tizimining egiluvchanligi va shu kabi individual psixologik xususiyatlarini hisobga olish zarurligi ta‘kidlanadi. Bu borada, chet tillarni o‘zlashtirish jarayonida til o‘rganuvchilarda vujudga keladigan emotsional holatlarning ulardagi motivatsion, kognitiv va konativ (xulq-atvorga oid) sohasiga ta‘sirini inobatga olib, mazkur muammoni alohida tadqiqot predmeti sifatida o‘rganish zarurati yuzaga keladi.

Yangi O‘zbekistonda so‘nggi yillarda oliy ta‘lim tizimining barcha turlari, jumladan, oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash tizimini tubdan isloh qilish bo‘yicha aniq va maqsadli ishlar amalga oshirilib, zarur zarur huquqiy-me‘yoriy asoslari yaratildi: «Xorijiy tillarni o‘qitish sifatini yaxshilash, ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirish, aholining xorijiy tillarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi»² ning ishlab chiqilganligi mamlakatimizda chet tillarni o‘qitishda zamonaviy ta‘lim texnologiyalaridan foydalanish, bu borada ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishni takomillashtirish uchun zarur asos bo‘la oladi.

¹ Доклад о мировой миграции за 2024 год – Глобальные тенденции и проблемы в области мобильности людей - News Central Asia (nCa)

² 312-сон 19.05.2021. Хорижий тилларни ўрганишни оммалаштиришни самарали ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 1-mayda O‘RQ-837-son «O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi to‘g‘risida»gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O‘zbekiston – 2030» Strategiyasi to‘g‘risida», 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2019 yil 8 oktyabrdagi PF-5847-son «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasi», 2020-yil 6-noyabrdagi PF-6108-son «O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta‘lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» Farmonlari, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son «O‘zbekiston respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida», O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 11-avgustdagi 610-son «Ta‘lim muassasalarida chet tillarini o‘qitishning sifatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorlari hamda sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan keng ko‘lamli strategik chora-tadbirlarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekiston psixolog olimlaridan M.G.Davletshin, E.G‘.G‘oziyev, M.T.Isakova, S.Isroiljonov, V.M.Karimova, M.G.Miliyeva, Z.T.Nishonova, B.R.Qodirov, K.B.Qodirov, G.Sh.Salomova, M.Ahmedova, J.Jalolov, L.Iliyeva, M.Abdullayeva, S.N.Jo‘rayeva, O.Hoshimov, G.Sobirova, G.Tajibayev, M.Yusupova va boshqalar tomonidan talabalik davrida o‘qish faoliyatiga ta‘sir ko‘rsatuvchi turli psixologik, ijtimoiy omillar xususan, xorijiy tillarni muvaffaqiyatli o‘qitish sohasidagi motivatsiya, xotira, tafakkur, qobiliyat masalalari o‘rganilgan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan D.B. Elkonin, V.G.Aseev, L.I.Bojovich, E.P.Ilyin, I.P.Imenitova, A.N.Leontev, A.K. Markova, L.S.Vigotskiy, E.V.Shoroxova, N.M.Simonova va boshqalar tomonidan xorijiy tilni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishdagi psixoemotsional omillardan motivatsiya va chet tili bilish qobiliyati muammosini o‘rganishda eng samarali bo‘lgan tizimli yondashuvlarni o‘rgangan holda ilmiy izlanishlarni amalga oshirishgan.

Xorijlik psixolog olimlardan V.Atkinson, R.Gardner, U.Lambert, K.Rodgers, V.Frankl, Yu.L.Xanin va boshqalarning ilmiy izlanishlarida pedagogik muloqotni dialoglashtirish muammolari, ma‘naviy-axloqiy ustunlik va shaxsning qadr-qimmatini, uning faoliyat, muloqat va kasb-hunarga tayyorgarlikdagi yutuqlari masalalarini ilmiy tadqiq qilingan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya

tadqiqoti Buxoro davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining PZ-202005236 «Oila psixologiyasi fanidan multimedia mahsulotini yaratish» nomli innovatsion loyiha doirasida bajarilgan (2021-2022-y.y.).

Tadqiqotning maqsadi talabalarda xorijiy tillarni o'rganish jarayonida namoyon bo'ladigan emotsional holatlarining psixologik xususiyatlarini o'rganish va ularga zaruriy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

xorijiy tillarni o'rganishda talabalarda namoyon bo'ladigan emotsional holatlarning yosh va jinsiy farqlarini aniqlash;

xorijiy tillarni o'rganayotgan talabalarda emotsional sohaga ta'sir qiluvchi motivatsiya, ijtimoiy obro'ga intilish kabi psixologik ko'rsatkichlarning yosh va individual tafovutlarini tahlil qilish;

xorijiy tillarni o'rganish jarayonida talabalaridagi emotsional holat, muvaffaqiyatga erishish motivlari, iroda kuchi va emotsional intellekt darajalarining o'zaro korrelyatsion aloqadorligini aniqlash;

xorijiy tillarni o'rganayotgan talabalarda ijobiy emotsional holatlarni barqarorlashtirishga qaratilgan maxsus psixokorreksion dastur ishlab chiqish va unig samaradorligini tekshirish.

Tadqiqot obyekti sifatida talabalarda xorijiy tillarni o'rganish jarayonida namoyon bo'ladigan emotsional holatlarining psixologik xususiyatlari tanlangan bo'lib, Buxoro pedagogika universiteti Filologiya va tillarni o'qitish, Pedagogika, Boshlang'ich ta'lim fakultetlaridan 78 nafar, Ma'mun universiteti Filologiya, Iqtisod, Psixologiya va tibbiyot fakultetlaridan 160 nafar va Qoraqalpoq davlat universitetidan 65 nafar talabalar, jami 303 nafar respondentlar tadqiqotga jalb etilgan.

Tadqiqot predmetini talabalarda xorijiy tillarni o'rganish jarayonida namoyon bo'ladigan emotsional holatlarning psixologik xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda Ch.D.Spilberger va Yu.L.Xaninning «Reaktiv va shaxsiy havotirlik darajasini aniqlash» metodikasi, T.Elersning «Muvaffaqiyatga erishish va mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasini aniqlash» metodikasi, N.Xollning «Emotsional intellekt koeffitsiyentini aniqlash» metodikasi, N.N.Obozovning «Iroda kuchini baholash» testi, M.Kubyshkinaning «MAC» metodikalaridan foydalanildi. Olingan natijalarning ishonchlilik darajasi matematik-statistika metodlaridan Mann-Uitnining U-mezoni, Kruskal-Uollisning-H-mezoni, Spirmanning r-korrelyatsiya koeffitsiyentini qo'llash orqali tasdiqlandi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

talabalarda xorijiy tillarni o'rganish jarayonida namoyon bo'ladigan emotsional holatlarning darajaviy rivojlanishiga ko'ra ularda til o'rganish bilan bog'liq «emotsional bilimdonlik», «o'z emotsiyalarini boshqarish», «empatiya», «o'zgalarning emotsional holatlarini bilish» hamda shaxsiy xavotirlik holatlarining yosh va jinsiy tafovutlanishi dalillangan;

talabalarining xorijiy tillarni o'rganish jarayonida «muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi», «raqobat istagi», «maqsadga erishishga intilish» kabi psixologik ko'rsatkichlarning yoshga bog'liq differensial identiv ekanligi isbotlangan;

xorijiy tillarni o'rganish jarayonida talabalardagi emotsional holatlarning ifodalanishiga ko'ra ulardagi empatiya shkalasi «muvaqqiyatga erishish» istagining ijobiy, «vaziyatli va shaxsiy xavotirlanuvchanlik» holati bilan salbiy aloqadorlikda, o'zgalarning emotsiyalarini bilish qobiliyati esa «muvaqqiyatga erishish», «iroda kuchi» bilan ijobiy bog'liqlikda ekanligi dalillangan;

talabalarining xorijiy tillarni o'rganish jarayonida namoyon bo'ladigan salbiy emotsional holatlarni maxsus tashkil qilingan dastur asosida «kognitiv», «emotsional», «konativ» sohalariga maqsadli ta'sir tufayli, «reaktiv xavotirlanuvchanlik», «mag'lubiyatdan qochish», «muvaqqiyatga erishish» kabi psixologik ko'rsatkichlarning ijobiy barqarorlashishiga erishish dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

talabalarda xorijiy tillarni o'rganish jarayonida namoyon bo'ladigan emotsional holatlarining psixologik xususiyatlarini aniqlashga doir Ijtimoiy psixologik so'rovnomani ishlab chiqilgan va amaliyotda qo'llanilgan;

talabalarda xorijiy tillarni o'rganish jarayonida namoyon bo'ladigan emotsional holatlarining psixologik xususiyatlarini aniqlash asosida emotsional holatlarni tartibga solish va ijobiylikni rivojlantirish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar va rivojlantiruvchi dastur uchun mo'ljallangan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

xorijiy tillarni o'rganayotgan talabalarda sodir bo'ladigan psixos emotsional holatlarni barqarorlashtirish va ijobiylikni rivojlantirish maqsadida psixokorreksion dastur samaradorligi tasdiqlanib, o'qituvchi va talabalar o'quv faoliyatiga joriy etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi tadqiqot respondentlarining yetarlicha reprezentativligi; olingan empirik miqdoriy ko'rsatkichlarning matematik statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilinganligi; tadqiqot natijalarining ilmiy jihatdan asoslanganligi, xalqaro miqyosida e'tirof etilgan metodikalar vositasida o'rganilganligi, empirik izlanishlar nazariy asoslab berilganligi va olingan natijalar aniq matematik-statistik metodlar va ma'lumotlarni qayta ishlash «MS EXCEL», «SPSS 20» dasturi yordamida korrelyatsion qayta ishlab chiqilganligi va shu asosda psixologik interpretatsiya qilinganligi, xulosa, taklif, tavsiyalarining amaliyotda joriy etilganligi; tadqiqot maydoni sifatida turli hududlardagi muassasalar tanlangani; olingan natijalar keng ilmiy jamoatchilik o'rtasida muhokama qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Xorijiy tillarni o'rganish jarayonida namoyon bo'ladigan emotsional holatlarning xorijiy tilni o'zlashtirishdagi ijobiy va salbiy ta'siri, shu bilan birga o'zaro bog'liqligi ajratib ko'rsatib berildi, ilmiy xulosalardan xorijiy tillarni o'rganishning psixos emotsional holatlar asosida rivojlantirish imkoniyati mavjudligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati ishdagi nazariy umumlashma va tahlillardan talabalarda xorijiy tillarni o'rganish jarayonida sodir bo'ladigan psixos emotsional holatlarni ko'rsatib beruvchi pedagogik-psixologik omillarini belgilab olgan holda psixologiya, psixolingvistika va xorijiy tillarni o'rganish psixologiyasi fanlaridan o'quv qo'llanma, darsliklar tayyorlashda, psixologik lug'atlarni takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi: Talabalarda xorijiy tillarni o‘rganish jarayonida namoyon bo‘ladigan emotsional holatlarning psixologik xususiyatlari mavzusida olib borilgan ilmiy tadqiqot asosida:

xorijiy tillarni o‘rganayotgan talabalardagi til o‘rganish jarayonlarida namoyon bo‘ladigan emotsional holatlarning darajaviy ifodalanishiga ko‘ra ular chet tillari bilan bog‘liq vaziyatli va shaxsiy xavotirlanish holatlari hamda emotsional entellekt ko‘rsatgichlarining yosh va jinsiy jihatdan differensial farqlanishini dalillashga oid takliflar «Ontagenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan. (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 5-mart PM-325a sonli ma‘lumotnomasi). Natijada Xorijiy tillarni o‘rganayotgan talabalardagi til o‘rganish jarayonlaridagi emotsional holatlarini yosh va jins xususiyatlariga bog‘liq holda differensial farqlanishini ilmiy tadqiq etish erishilgan;

xorijiy tillarni o‘rganayotgan talabalarda chet tillarni o‘rganish jarayonlaridagi emotsional holatlarning namoyon bo‘lishiga ko‘ra ularda muvaffaqiyatga erishish va muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivlari, irodaviy jarayonlar va ijtimoiy obro‘ga intilish, muvaffaqiyatga erishish xususiyatlarida yosh, jins va kurslar kesimida differensial tafovutlar mavjudligini aniqlashga oid ma‘lumotlar «Ontagenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan. (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 5-mart PM-325a sonli ma‘lumotnomasi). Natijada talabalar chet tillarni o‘rganish jarayonlaridagi emotsional holatlarini yosh va jins xususiyatlariga bog‘liq holda differensial farqlanishini ilmiy tadqiq etishga erishilgan;

xorijiy tillarni o‘rganayotgan talabalarda chet tillarini o‘zlashtirish jarayonlarida emotsional holatlarning namoyon bo‘lishiga ko‘ra ularda vaziyat bilan bog‘liq xavotirlanishning «Emotsional bilimdonlik» xususiyati bilan ijobiy, «O‘z emotsiyalarini boshqarish», «O‘zini o‘zi undash qobiliyati», «Empatiya» va «O‘zgalarning emotsional holatlarini bilish qobiliyati» esa vaziyat va shaxsiy xavotirlanish holati bilan salbiy aloqadorligda ekanligi, shuningdek, iroda kuchining «Muvaffaqiyatga erishish» motivi bilan musbat aloqadorlikda ekanligini aniqlashga oid ma‘lumotlar «Ontagenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan. (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 5-mart PM-325a sonli ma‘lumotnomasi). Natijada talabalar chet tillarini o‘rganish jarayonlarida namoyon bo‘ladigan emotsional holatlarning motivatsiya bilan korrelyatsion aloqadorligini aniqlash sharoit yaratilgan;

xorijiy tillarni o‘rganish jarayonida namoyon bo‘ladigan emotsional holatlar namoyon bo‘lishida talabalarda o‘z emotsiyalarini baholash va boshqarish ko‘nikmasini maxsus psixologik rivojlantirish dasturini qo‘llash orqali «Emotsional bilimdonlik», «O‘z emotsiyalarini boshqarish», «O‘z o‘zini undash» va xorijiy tillarni o‘rganish jarayonidagi reaktiv xavotirlanish holatlarini pasayishiga erishilish mumkinligini isbotlashga oid ma‘lumotlar «Ontagenez psixologiyasi. Differensial psixologiya» moduliga kiritilgan. (Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 5-mart PM-325a sonli

ma'lumotnomasi). Natijada talabalarda xorijiy tillarni o'rganish jarayonida samarali psixologik tayyorgarlikni ta'minlash uchun maxsus psixokorreksion dastur ishlab chiqish va uning samaradorligini aniqlashga erishilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatyasi. Ushbu tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro hamda 3 ta Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarida qilinib, ilmiy jamoatchilik tomonidan tahlil etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 10 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot ishi tarkibi kirish qismi, uchta bob, xulosa va tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiya ishining hajmi 129 sahifani tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilab olingan, tadqiqotning metodlari, obyektlari va predmetlari aniqlangan, dissertatsiya mavzusi bo'yicha muammoning o'rganilganlik darajasi tahlil qilingan. Ishning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi ochib berilgan hamda ilmiy va amaliy ahamiyati tavsiflangan, natijalarning ishonchligi, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, nashr etilgan ishlar va tadqiqot tuzilishi borasidagi ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi «**Talabalarda xorijiy tillarni o'rganishda namoyon bo'ladigan emotsional holatlar haqidagi ilmiy manbalarning yoritilishi**» deb nomlangan bo'lib unda xorijiy tillarni o'rganishda faqatgina qobiliyatning o'zigina kamlik qilishini, yuqori darajadagi xohish va motivatsiya tilni o'zlashtirish tezligini oshirishini va qiziqishni orttirishini, xorijiy til o'rganish insonning kognitiv rivojlanishi, xotirasi va diqqatini yaxshilash, stressni kamaytirish va demensiyaning oldini olish kabi psixologik afzalliklarga ega ekanligi haqidagi ma'lumotlar keltirilgan. Jumladan, talabalarda xorijiy tillarni o'rganish jarayonida namoyon bo'ladigan emotsional holatlarning psixologik xususiyatlarini tadqiq qilishning ahamiyati batafsil ravishda yoritib berilgan. Nazariy tahlil asosida zamonaviy psixologik tadqiqotlarda chet tillarini o'rganishda emotsiyalarning o'rni va rivojlanish bosqichlarining psixologik jihatlari ko'rib chiqilgan.

Talabalarda xorijiy tillarni o'rganish jarayonida namoyon bo'ladigan emotsional holatlarining psixologik xususiyatlari bo'yicha xorij olimlaridan S.Hardjono, X. Klark, Gardner, Lambert, A.L.Leontev, I.A.Zimnaya, V.N.Myasishchev, Parigin, Shakurov, I.F.Gerbert, S.Shexter, R.Pekrun, Sh.Shoaib, Z.Dornye, V.Ipatova, J.M.Devale, B.Makinter, R.Pishgadam, K.Sherer va boshqalarning olib borilgan ilmiy izlanishlarida talabalarda chet tillarini o'rganish jarayonida yuzaga keladigan havotirlik darajasini

aniqlash va u bilan kurashish, shu bilan bir qatorda iroda kuchi, muvaffaqiyatga erishishga motivatsiya, emotsional bilimdonlik darajalari, o'z emotsiyalarini namoyon eta olish, muloqot qobiliyatlari, maqsadlari sari olg'a intilish kabi sifatlarni rivojlanishi borasida va talabalarda o'z hissiyotlarini boshqarish ko'nikmasi rivojlanishi muammolari bo'yicha tadqiqotlar tahlil qilingan.

Olib borilgan nazariy–ilmiy tahlillar tanlangan mavzu doirasidagi muammoning bugungi kunda rivojlanish va pedagogik-psixologiya fani taraqqiyoti uchun nihoyatda dolzarb ekanligini ko'rsatdi.

O'rganilgan ilmiy adabiyotlar tahlili bugungi kunda universitet talabalaridagi xorijiy tillarni o'rganish jarayonida namoyon bo'ladigan emotsional holatlarning psixologik xususiyatlariga bevosita ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar tizimini empirik jihatdan o'rganish va shu o'rganish natijalari asosida ilmiy xulosalarni shakllantirish va psixologlar, pedagoglar, talabalar uchun muhim bo'lgan amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish muqarrarligini ko'rsatadi.

Dissertatsiyaning **«Xorijiy tillarni o'rganayotgan talabalarda namoyon bo'ladigan emotsional holatlarning empirik o'rganilishi»** deb nomlangan ikkinchi bobida xorijiy tillarni o'rganayotgan talabalarda namoyon bo'ladigan emotsional holatlardagi psixologik tadqiqotning nazariy-metodologik asoslari, qo'llanilgan metodikalarning umumiy tavsifi va o'tkazish tartibi o'z aksini topgan. Shuningdek, talabalarda xorijiy tillarni o'rganish jarayonida namoyon bo'ladigan emotsional holatlarining psixologik xususiyatlarida namoyon bo'ladigan xavotirlilik, muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi, muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi, iroda kuchi, emotsional bilimdonlik, o'z emotsiyalarini boshqarish, o'z o'zini undash qobiliyati, empatiya, o'zgalarning emotsional holatlarini bilish qobiliyati, ijtimoiy obro'ga intilish, raqobat istagi, maqsadga erishishga intilish kabi holatlarda o'zaro muvofiqlik, rivojlanish darajalari differentsial farqlari, o'zaro bog'liqligi masalasiga alohida e'tibor qaratilgan.

Tadqiqotda foydalanilgan usullarning metodologik asosi sifatida J.W.Atkinson, V.N.Myasishev, P.V.Simonov, G.Ollport, B.G.Ananev, L.S.Vigotskiy, A.N.Leontyev, V.V.Davidov, S.L.Rubinshteyn, P.Ya.Galperin kabi olimlarning ilmiy va metodologik ishlari asos etib olingan.

Tadqiqot ishini tashkil qilishda xorijiy tillarni o'rganayotgan ixtisoslik va boshqa yo'nalish talabalari o'rtasida ijtimoiy psixologik so'rovnoma, N.N.Obozovning «Iroda kuchini baholash» so'rovnomasi, N.Xollning «Emotsional intellekt koeffitsiyentini aniqlash» metodikasi, T.Elersning «Muvaffaqiyatga erishish va mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasini aniqlash» va «Muvaffaqiyatsizlikdan qochish motivatsiyasi» metodikasi, Ch.D.Spilberger va Yu.L.Xaninning «Reaktiv va shaxsiy xavotirlik darajasini aniqlash» metodikasi, M.Kubyshkinaning «MAS» so'rovnomasidan foydalanildi.

Tadqiqotda asosan, Buxoro pedagogika universitetidan 78 nafar, Ma'mun universitetidan 160 nafar va Qoraqalpoq davlat universitetidan 65 nafar talabalardan jami 303 nafar respondentlar tanlab olindi. Tadqiqot maqsadiga erishish uchun

yuqorida keltirilgan metodologik asoslarga tayanib talabalar bilan ijtimoiy psixologik so‘rovnoma ham o‘tkazildi.

Quyida N.Hollning «Emotsional intellekt koefitsientini» aniqlash metodikasining natijalari keltirildi.

1-jadval

Xorijiy tillarni o‘rganayotgan talabalarda N.Xollning «Emotsional intellekt koefitsientini aniqlash» metodikasi natijalari, yosh kesimida, (Mann-Uitni mezoni, n=303)

Shkalalar	Yoshi	N	O‘rtacha rang	U	p
Emotsional bilimdonlik	18-21 yosh	165	136,91	8950,500	,003**
	22-30 yosh	138	165,69		
O‘z emotsiyalarini boshqarish	18-21 yosh	57	159,33	9564,000	,038**
	22-30 yosh	246	138,82		
O‘zini o‘zi undash qobiliyati	18-21 yosh	57	143,98	10103,000	,180
	22-30 yosh	246	157,21		
Empatiya	18-21 yosh	57	140,48	9531,500	,034*
	22-30 yosh	246	161,42		
O‘zgalarning emotsional holatlari bilish qobiliyati	18-21 yosh	57	137,47	9041,000	,005**
	22-30 yosh	246	165,02		

Izoh: **p≤0,01

1-jadvalga asosan, «Emotsional intellekt koefitsientini» aniqlash metodikasining yosh guruhi bo‘yicha natijalar tahlili «Emotsional bilimdonlik» shkalasida ishonchli farqlar namoyon qildi (U=8950,500; p≤0,01). Emotsional bilimdonlik intellekti 22-30 yoshli talabalarda 18-21 yoshli talabalarga nisbatan yuqori ekan. Xorijiy tillarni o‘rganayotgan 22-30 yoshli talabalarda emotsional bilimdonlik yuqori bo‘lishi ularda aql-idrokni yaxshi rivojlanganligi, tajribaning yetarliligi va yosh davrining yetakchi faoliyatida aks etadi. Ularda xorijiy tillarni o‘rganish jarayonida yuzaga keladigan turli vaziyatlarda o‘zini qanday tutishini bilishi uchun salbiy hissiyotlar ham, ijobiy hissiyotlar ham manba vazifasini o‘taydi. Salbiy hissiyotlar ularning hayotida nimadir o‘zgartirishi kerakligini tushunishiga yordam beradi va kelgusida xorij tilini o‘zlashtirishning yengil usullarini ishlab chiqadilar.

Shu bilan birga «O‘z emotsiyalarini boshqarish» shkalasida ishonchli farqlar kuzatildi (U=9564,000; p≤0,001) va 18-21 yoshli talabalarda 22-30 yoshli talabalarga nisbatan yuqori bo‘lib, xorijiy tillarni o‘rganish davrida 18-21 yoshli yigit qizlarda ancha oson va kelajakka bo‘lgan ishonchning balandligi, maqsadlarning ko‘pligi bilan ajralib turadi, chunki bu davrda ulardagi xavotirlik darajasining, ya’ni kelajakdagi ish faoliyati bilan bog‘liq qo‘rquvlarning past darajada ekanligi o‘z emotsiyalarini boshqarishda qiyinchiliklarga uchramasliklariga sabab bo‘la oladi. O‘z emotsiyalarini boshqara olish o‘z navbatida o‘ziga bo‘lgan ishonchni oshiradi va bu chet tillarini o‘rganayotgan talabalar uchun muhim hisoblanadi, shu sababli ham 18-21 yoshli yigit va qizlar orasida til sertifikatlarini muvaffaqiyatli qo‘lga kiritganlar ko‘pchilikni tashkil etadi.

«Empatiya» shkalasida ($U=9531,500$; $p \leq 0,01$) 22-30 yoshli talabalarda 18-21 yoshli talabalarga nisbatan yuqori bo‘lib, 22-30 yoshli talabalar o‘zgalarning muammolari, tashvishlarini tinglay oladilar, boshqalarning hissiy ehtiyojlariga nisbatan o‘ta sezgir bo‘ladilar, ochiq izhor etilmagan taqdirda ham birovlarining hiskechinmalarini tushuna oladilar. Ular yuz ifodasiga qarab odamlarning kayfiyatini biladilar, birovlarining ko‘nglidagi dardlarini ular bilan muloqot qilish orqali bila oladilar, o‘zgalarning kayfiyatlariga moslasha oladilar.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, «o‘zgalarning emotsional holatlarini bilish qobiliyati» shkalasi bo‘yicha ($U=9041,000$; $p \leq 0,001$) 22-30 yosh oralig‘idagi talabalar 18-21 yoshli talabalarga nisbatan boshqalarning emotsional holatlarini yaxshiroq anglaydilar va bu yosh oralig‘ida ushbu qobiliyat nisbatan yuqori darajada shakllangan. Bu esa shaxsiy va professional hayotda muvaffaqiyatli ijtimoiy muloqot va moslashuvchanlikning oshishiga turtki berishi mumkin.

Tadqiqotda Spilberger-Xaninning «Reaktiv va shaxsiy xavotirlik darajasini aniqlash» metodikasi jins kesimida tahlil qilindi va ushbu usulning samaradorligi baholandi va quyida natijalari keltirildi.

2-jadval

Xorijiy tillarni o‘rganayotgan talabalarda N Ch.D.Spilberger-Yu.L.Xaninlarning «Reaktiv va shaxsiy xavotirlik shkalalarini o‘rganish» metodikasi natijalari, jins kesimida
(Mann-Uitni mezoni, $n=303$)

Shkalalar	Jinsi	N	O‘rtacha rang	U	p
Reaktiv xavotirlik holati	Yigitlar	57	148,03	6693,500	,741
	Qizlar	246	152,29		
Shaxsiy xavotirlik holati	Yigitlar	57	109,42	4531,500	,000***
	Qizlar	246	161,08		

Izoh: *** $p \leq 0,001$

Yuqorida keltirilgan jadvalga asosan, shaxsiy xavotirlik holati qiz bola talabalarda yuqoriligi ishonchli farqlar orqali ma‘lum bo‘ldi ($U=4531,500$; $p \leq 0,001$). Qiz bola talabalarda shaxsiy xavotir yuqori bo‘lishiga asosiy sabablardan biri qilib qadriyatlarimizdagi qiz bolalar uchun ayrim cheklovlar mavjudligi (kech tushushi bilan ko‘chada yurolmaslik, xorijga chiqolmaslik, og‘ir mehnatlarni qilish kabi holatlar) yoshligidan singib kelgan va ushbu holatlar chet tillarini o‘rganishda yuzaga keladigan shaxsiy xavotirlikni oshishiga sabab bo‘la oladi. Yigitlarga nisbatan qizlar xorijiy tillarni qanchalik mukammal bilishlariga qaramasdan, xorijda o‘qish va ishlash yuzasidan oila a‘zolarining qarashlari va xattoki roziliklarini olishda qiyinchiliklarga duch kelishlarini kuzatishimiz mumkin, shuning uchun ham qiz talabalarda yoshligidan qolib ketgan xavotir va qo‘rquv darajasi yuqoridagi shaxsiy xavotirlik holatlari oshib ketishiga olib keladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 22–30 yosh oralig‘idagi talabalarda muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi 18–21 yoshli talabalarga nisbatan ancha yuqori darajada shakllangan. Katta yoshdagi talabalar odatda o‘qish jarayonida va hayotiy tajribada ko‘proq sinovlardan o‘tgan bo‘lib, ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchi yuqori

darajada bo'lishi kuzatiladi. Shuningdek, 22–30 yosh oralig'idagi talabalar, ayniqsa, xorijiy tillarni o'rganayotgan va yuqori kurslarda tahsil olayotgan talabalar, o'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishishda mustahkam irodaga ega bo'lib, muvaffaqiyat sari intilishlari bilan ajralib turadilar.

3-jadval

Xorijiy tillarni o'rganayotgan talabalarda T.Elersning «Muvaffaqiyatga erishish va mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasi»ni aniqlash metodikasi natijalari, yosh kesimida (Mann-Uitni mezon, n=303)

Shkalalar	Yoshi	N	O'rtacha rang	U	p
Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi	18-21 yosh	165	139,51	9374,500	,020**
	22-30 yosh	138	162,57		
Mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasi	18-21 yosh	165	157,36	9885,000	0,104
	22-30 yosh	138	141,18		

Izoh: **p≤0,01

Ushbu yosh guruhida qaror qabul qilish qobiliyati kuchaygan bo'lib, ular duch keladigan to'siqlarni yengib o'tish qobiliyatiga ega ekanliklari kuzatiladi.

Xorijiy tillarni o'rganayotgan talabalar yosh kesimida «MAS» metodikasining natijalari tahlil qilindi va quyida natijalari keltirildi.

4-jadval

Xorijiy tillarni o'rganayotgan talabalarda Kubyskinaning «MAS» metodikasi natijalari, yosh kesimida (Mann-Uitni mezon, n=303)

Shkalalar	Yoshi	N	O'rtacha rang	U	p
Ijtimoiy obro'-e'tiborga intilish	18-21 yosh	165	144,03	10110,500	,184
	22-30 yosh	138	157,16		
Raqobat istagi	18-21 yosh	57	168,68	8039,500	,000**
	22-30 yosh	246	127,61		
Maqsadga erishishga intilish	18-21 yosh	57	131,83	8122,500	,000**
	22-30 yosh	246	171,78		

Izoh: ***p≤0,001

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlarga tayangan holda, «Raqobat istagi» shkalasida ishonchli farqlar kuzatildi (U=8039,500; p≤0,001), ya'ni 22-30 yoshli talabalarga nisbatan 18-21 yoshli talabalarda raqobat istagi yuqori ekan. Bu davrda talabalar universitetga endigina kirgan, uning imkoniyatlaridan foydalanish uchun, kursdosh do'stalaridan ortda qolmaslik uchun, ustozlarining ko'zga ko'ringan shogirdi bo'lish

uchun harakat qilishadi va bu ayniqsa chet tillarni o'rganishda yaqqol ko'zga ko'rinadi. Chunki bugunki kunda chet tili bilish sertifikatiga ega bo'lgan talabalarga universitetlarda qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligi sababli xorijiy tillarni o'rganayotgan talabalarda qo'shimcha imtiyozlarga erishish va kursdoshlaridan o'zib ketish maqsadida raqobat istagi yuqori bo'ladi. Bu davrda chet tili o'rganayotgan talabalar doim boshqalardan oldinda bo'lishga va yaxshi natijalarga erishishga intiladilar va ularning natijalari boshqalarga qaraganda yaxshiroq ekanligi ular uchun juda muhim, boshqalarning muvaffaqiyati hamma narsadan ko'ra ko'proq ularni rag'batlantiradi va faollashtiradi.

«Maqsadga erishishga intilish» shkalasida ishonchli farqlar kuzatildi ($U=8122,500$; $p\leq 0,001$), 18-21 yoshli talabalarga nisbatan 22-30 yoshli talabalarda maqsadga erishishga intilish yuqori ekan. Bu yoshli talabalar raqobatchilaridan o'zib ketish uchun bor kuchi bilan ishlashga tayyor bo'ladilar, chunki ushbu davr kelajak ish faoliyati uchun muhim qadamlardan biri ekanligini his qilgan holda harakat qilishadi. Chet tilini o'rganish, xalqaro sertifikatga ega bo'lish karyera hayotida muvaffaqiyat garovi ekanligini anglagan holda o'z oldiga aniq maqsad qo'yib harakatlanadilar.

Tadqiqot vazifasidan kelib chiqqan holda, «Muvaffaqiyatga erishish va mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasini aniqlash» hamda «Emotsional intellekt koeffitsientini aniqlash» metodikasi shkalalari orasidagi korrelyatsiya koeffitsientlari ko'rib chiqildi va quyidagi jadvalda natijalar keltirildi.

5-jadval

T.Elersning «Muvaffaqiyatga erishish va Mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasini aniqlash» va N.Xollning «Emotsional intellekt koeffitsientini aniqlash» metodikalari orasidagi korrelyatsion aloqadorlik
(Spirmen bo'yicha, $n=303$)

Emotsional intellekt koeffitsienti	Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi	Mag'lubiyatdan qochish motivatsiyasi
Emotsional bilimdonlik	,081	,109
O'z emotsiyalarini boshqarish	,077	,025
O'zini o'zi undash qobiliyati	,071	,085
Empatiya	,158**	,092
O'zgalarning emotsional holatlari bilish qobiliyati	,117*	-,003

Izoh: * - $p\leq 0,05$

«Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi» va «Empatiya» shkalalarida musbat ($r=,158$; $p\leq 0,01$) aloqadorlik aniqlandi. Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasining yuqoriligi orqali empatiya oshadi, ya'ni yuqori motivatsiyaga ega shaxslar odatda atrofdagilarning his-tuyg'ulariga sezgirroq bo'lishligini ko'rishimiz mumkin, bu esa ijtimoiy munosabatlarda samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi.

«Muvaffaqiyatga erishish motivatsiyasi» va «O'zgalarning emotsional holatlari bilish qobiliyati» shkalalari musbat ($r=,117$; $p\leq 0,01$) aloqadorlikda bo'lib, insonning boshqalarni tushunish, ularga hamdardlik bildirish va emotsional holatlarni anglash

qobiliyati muvaffaqiyat sari intilish bilan birga shakllanadi. Ushbu natijalar shaxsiy va kasbiy muvaffaqiyat uchun motivatsiya bilan emotsional intellektning integratsiyalashgan holda rivojlanishi zarurligini ko'rsatadi. Natijalarga asosan, ta'lim jarayonida nafaqat akademik yutuqlarga, balki talabalarning emotsional intellektini rivojlantirishga ham e'tibor qaratish muhim ahamiyatga ega.

Xorijiy tillarni o'rganayotgan talabalarda «Iroda kuchini baholash» metodikasi hamda «Emotsional intellekt koeffitsientini aniqlash» metodikasi shkalalari orasidagi korrelyatsiya koeffitsientlari tahlili va natijalari quyidagi jadvalda keltirildi.

6-jadval

N.N.Obozovning «Iroda kuchini baholash» metodikasi hamda N.Xollning «Emotsional intellekt koeffitsientini aniqlash» metodikasi shkalalari orasidagi korrelyatsion aloqadorligi (Spirmen bo'yicha, n=303)

Emotsional intellekt koeffitsientini aniqlash	Iroda kuchini baholash
Emotsional bilimdonlik	,024
O'z emotsiyalarini boshqarish	-,050
O'zini o'zi undash qobiliyati	-,085
Empatiya	,046
O'zgalarning emotsional holatlari bilish qobiliyati	,354**
Ijtimoiy obro'-e'tiborga intilish	-,086

Izoh: ** - $p \leq 0.01$

Tadqiqotimizning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, xorijiy tillarni o'rganayotgan talabalarning «Iroda kuchini baholash» va «Emotsional intellekt koeffitsienti» o'rtasidagi o'zaro korrelyatsion aloqadorlikni tahlil qilinganda «Iroda kuchini baholash» va «O'zgalarning emotsional holatlari bilish qobiliyati» shkalalari ijobiy ($r=0,354$; $p \leq 0,01$) aloqadorlik mavjud bo'lib, bu ikki omil bir-birini kuchaytiradi.

7-jadval

Ch.D.Spilberger-Yu.L.Xaninlarning «Reaktiv va shaxsiy xavotirlik darajasini aniqlash» metodikasi va N.Xollning «Emotsional intellekt koeffitsientini aniqlash» metodikasi shkalalari orasidagi korrelyatsion aloqadorlik (Spirmen bo'yicha, n=303)

Emotsional intellekt koeffitsienti	Reaktiv xavotirlik holati	Shaxsiy xavotirlik holati
Emotsional bilimdonlik	,163**	-,088
O'z emotsiyalarini boshqarish	-,149*	-,175**
O'zini o'zi undash qobiliyati	-,118*	-,218**
Empatiya	-,139*	-,114*
O'zgalarning emotsional holatlari bilish qobiliyati	-,136*	-,122*

Izoh: * - $p \leq 0.05$; ** - $p \leq 0.01$

Xorijiy tillarni o'rganayotgan talabalar uchun yuqori iroda kuchi nafaqat akademik muvaffaqiyat uchun, balki ijtimoiy va emotsional jihatdan ham rivojlanishning muhim manbai hisoblanadi. Til o'rganish jarayonida to'siqlarni yengib o'tish qobiliyati, ya'ni iroda kuchini rivojlantirish orqali talabalarda boshqalarning emotsiyalarini chuqurroq anglash, emotsional intellektini oshirish imkonini beradi, bu esa ularning kelajakdagi professional va shaxsiy muvaffaqiyatlariga zamin yaratadi.

Quyida «Reaktiv va shaxsiy xavotirlik shkalalarini o'rganish» metodikasi hamda «Emotsional intellekt koeffitsientini» aniqlash metodikasi shkalalari orasidagi korrelyatsiya tahlili jadvali va natijalari keltirilgan.

«Reaktiv xavotirlik holati» va «o'z emotsiyalarini boshqarish» ($r=-,149$; $p\leq 0,01$), «o'zini o'zi undash qobiliyati» ($r=-,118$; $p\leq 0,01$), «empatiya» ($r=-,139$; $p\leq 0,01$), «o'zgalarning emotsional holatlari bilish qobiliyati» ($r=-,136$; $p\leq 0,01$) shkalalari bilan manfiy aloqadorlikda bo'lib, reaktiv xavotirlik darajasi oshgani sari, talabalarning o'z emotsiyalarini boshqarish, ichki motivatsiyasi, o'zini rag'batlantirish, o'z oldiga aniq maqsad qo'yish, unga erishish, atrofidagi insonlarning ruhiy holatini to'g'ri anglash kabi qobiliyatlari pasayadi. Chunki, xavotirga moyil bo'lgan shaxslar stress sharoitida o'z hissiyotlarini nazorat qilishda qiyinchiliklarga duch keladilar.

«Shaxsiy xavotirlik holati» shkalasi va «o'z emotsiyalarini boshqarish» ($r=-,175$; $p\leq 0,01$), «o'zini o'zi undash qobiliyati» ($r=-,218$; $p\leq 0,01$), «empatiya» ($r=-,114$; $p\leq 0,01$), «o'zgalarning emotsional holatlari bilish qobiliyati» ($r=-,122$; $p\leq 0,01$) shkalalari manfiy aloqadorlikda bo'lib, shaxsiy xavotir darajasi yuqori bo'lgan talabalarda o'z his-tuyg'ularini boshqarish, o'zini rag'batlantirish, ichki motivatsiyasi, boshqalar bilan hamdardlik qilish, boshqalar bilan emotsional jihatdan bog'lanish va ularning kayfiyatini to'g'ri tushunish qobiliyati va imkoniyati pastroq bo'ladi.

Tadqiqotning «**Talabalarda xorijiy tillarni o'rganishda yuzaga keladigan salbiy emotsional holatlarni korreksiyalashning dasturiy asoslari**» deb nomlangan uchinchi bobida talabalarda xorijiy tillarni o'rganishda namoyon bo'ladigan emotsional holatlarni korreksiyalash va rivojlantirish bo'yicha trening dasturi tavsifi, rivojlantirish modeli va psixokorreksion treningdan keyingi natijalar keltirilgan. Rivojlantiruvchi trening dasturda qo'llanilgan metod va mashqlarni tanlashda ularning metodologik asoslariga ham e'tibor qaratildi. Jumladan, dasturni tuzishda individual (psixogimnastik), bixevioral (xulq-atvor), gumanistik (jamoviy), ekzistensial, kognitivistik yondashuvlar hamda zamonaviy yo'nalishlardan hikoya terapiya, psixodrama usullaridan foydalanildi.

Xorijiy tillarni o'rganayotgan talabalarning psixologik emotsiyalarini, ya'ni til o'rganishdagi iroda kuchi, muvaffaqiyatga erishishga bo'lgan motivlarini oshirish, ushbu jarayondagi xavotirlik darajasini kamaytirish va emotsional holatlarini me'yorga solishga qaratilgan rivojlantiruvchi psixologik dastur «Xorijiy tillarni o'rganishdagi ijobiy emotsional holatlarni barqarorlashtirish» deb nomlanib, mazkur dastur chet tili o'rganish uchun zarur bo'lgan sifatlarning umumiy rivojlanishiga olib boradigan 8 ta alohida maqsadlarga ega bo'lgan mashg'ulotdan tashkil topgan. Dastur ikki oyga mo'ljallangan va har bir mashg'ulot o'z maqsadiga hamda kutiladigan natijalariga ega.

Xorijiy tillarni o'rganayotgan Filologiya yo'nalishi talabalaridagi zaruriy psixologik xususiyatlarni rivojlantirish bo'yicha ishlab chiqilgan «Xorijiy tillarni o'rganishdagi ijobiy emotsional holatlarni barqarorlashtirish» nomli psixologik dasturda mazkur yo'nalishda tahsil olayotgan birinchi kursdan to'rtinchi kursgacha bo'lgan talabalar jami 26 nafari ishtirok qildilar. Dastur ikki oy davomida amalga oshirildi.


